

JAMIYATNING BO'G'INI VA BIR QANCHA FANLARNING OB'EKTI - SHAXSNI NAZARIY JIHATDAN TAHLILI

Raxmatova Guliza Xayriddin qizi

Toshkent Amaliy fanlar Universiteti 3- kurs talabasi

Telefon raqam: 97 080 27 11

97 089 10 30

Annotatsiya:

Shaxs muammosini o'rganish nafaqat psixologiya balki, sotsiologiya, iqtisodiyot, tibbiyot, pedagogika umuman olganda insonni ishtiroki va roli bo'lgan har bir sohada o'rganilishi va tadqiq qilinishi muqarrar. Pedagogik jamoalarda shaxs psixodiagnostikasining amalga oshirilishi nafaqat uyushgan jamoaning garovidir. Psixologiyada shaxs muammosi va shaxsning ijtimoiy - psixologik tizimini psixodiagnostikasini tadqiq qilish pedagogik jamolarni o'rganishda ahamiyatli hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalovchi makro va mikro muhit tushunchasi. Ma'lumki, shaxsni ko'plab fanlar turli xil tomondan o'rganadi. Bir yo'nalish biologik bo'lsa, boshqasi sotsiologik, yana bir turi individual psixologik va nihoyat, yana bir yondashuv ijtimoiy psixologikdir. Biologik nuqtai nazardan shaxs taraqqiyoti individ nasliy jihatdan orttirgan genetik dasturlarning amalda ro'yobga chiqishi tarzida tasavvur etiladi. Sotsiologik yondashuv shaxsning madaniy-tarixiy muhit ta'sirida kamol topishini tan oladi. Ulardan farqli individual-psixologik yondashuv shaxsning rivojlanishiga uning tana tuzilishi yoki konstitutsional jihatlari va asab tizimi tipining ta'siri borligini ta'kidlab, o'rganadi.

Kalit so'zlar: Shaxs, yetuklik, jamiyat, munosabat, muomala, psixolog, kuzatuv, ijtimoiy - psixologik tizimi.

Shaxs tushunchasi keng va ko'p qirralidir. Mehnat qila olish ko'nikmasining mavjudligi, insonlar bilan birgalikda faoliyat munosabatni amalga oshirayotgan kishi asta - sekin shaxsga aylanib boradi. Bevosita moddiy dunyoni, jamiyatni va xususan o'zini o'rganish va faol tarzda qayta o'zgartirish jarayonining sub'ektga aylanmoqda. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi, ya'ni shaxs, individ, individuallik tushunchasining o'zaro bog'liqlik jihatlari mavjudmi?

Buning uchun mazkur tushunchalarning mazmunini tahlil qilish samarali hisoblanadi. Shuning uchun ham dastlab individ tushunchasining mazmuniga to'xtalish lozim, A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida "Individ" tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgandir. Yangi tug'ilgan chaqaloqni, katta yoshdagi odamni ham, mutafakkimi ham, aqli zaif, yovvoyilik bosqichidagi qabilaning vakilini ham, madaniyatli mamlakatda yashayotgan yuksak bilimli kishini ham individ deb hisoblash lozim. Individ tushunchasi professor E.G'ozievning "Umumiy psixologiya"

darsligida tavsiflanishicha, individ lotincha ajralmas, alohida zot ma'nolarini anglatib, inson zotiga xoslik masalasini belgilab beradi. Shuningdek, katta yoshdagi ruhiy sog'lom odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q oddiy malakalami o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi. M.G.Davletshin tahriri ostida chiqqan "Psixologiyadan qisqacha izohli lug'atda" individ bo'linmas, ayrim jins, shaxs ma'nolarini anglatib, biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot sifatida ko'rsatib o'tiladi. Keltirilgan ta'riflardan shuni xulosa qilish mumkinki shaxs deb muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug'ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individga aytiladi.

Individ sifatida dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Dunyoga kelayotgan chaqaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatining mavjudligini taqozo etsa, miyasining tuzilishi aql-xushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug'diradi, qo'llarining shakli shamoyili mehnat qurollaridan foydalanish istiqbollarning mavjudligini ko'rsatadi. Yuqorida aytilganlarning barchasida chaqaloqning inson zotiga mansubligini ta'kidlanadi va bu fakt individ tushunchasida qayd etiladi. Buni quyidagi sxema asosida tushuntirish lozim.

Hozirgi kunda asosiy muammolardan biri bir shaxsning boshqa odamlardan ajratib turadigan individual tuzilishga ega ekanligidir. Ushbu psixologik muammoni hal qilish shaxsning mazkur tuzilishining ichki sharoitlarida ifodalanuvchi xulq atvorni oldindan bashorat qilish imkonini yaratadi. Shaxs tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi masala esa bunday tuzilishning bir necha tarkibiy qismlarga ajratishni taqozo etadi binobarin, ushbu bo'laklarning yig'indisi yaxlit inson shaxsini vujudga keltiradi. Jahon psixologiya fanida psixologlar shaxsning psixologik tuzilishining tarkibiy qismlarini turli jihatlariga asoslanib, turkumlarga ajratishni tavsiya etmoqdalar. Hozirgi zamon jahon psixologiyasida biologik (tabiiy) va ijtimoiy omillarning voqelikka ta'siri ostida shakllangan inson shaxsida ikkita muhim qism bo'lganligini tasdiqlovchi nazariya yuksak mavqe'ni egallab turibdi. Mazkur nazariyaga binoan "ichki psixik" ("endopsixik" - yunoncha endo ichki degan ma'noni bildiradi) degan g'oyani ilgari surdilar. Uning talqiniga ko'ra, "endopsixika" shaxsning psixik tuzilishining ichki qismlari sifatida psixik elementlar va funksiyalarning o'zaro bog'liqligini aks ettiradi. Uning negizida insonning nerv-psixologik tuzilishi bilan "endopsixika" aynan bir narsa degan tushuncha tasdiqlanadi, chunki u odam shaxsining ichki mexanizmini yuzaga keltiradi. Psixik tuzilishning "endopsixik" qismi bo'lsa, shaxsning tashqi muhitga nisbatan munosabatini, shaxsga qarama qarshi bo'lgan barcha jihatlarini, shaxslararo va ob'ektiv munosabatini belgilaydi. "Endopsixika" o'z navbatida shaxsning ta'sirlanishi, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlarining xususiyatlarini irodaviy zo'r berish xislatlarini ixtiyorsiz harakatlarni va shu kabi fazilatlarni aks ettiradi. "Ekzopsixika" esa o'z tarkibida shaxs

munosabatlarining tizimini va uning qiziqishlari, mayllari, ideallari, maslagi ustunlik qiluvchi, hukmron hissiyotlarini, egallagan bilimlarni, tajribalarni qamrab oladi. Tabiiy asosga ega bo'lgan "endopsixika" biologik shart-sharoitlarga bog'liq bo'lsa, "ekzopsixika" aksincha ijtimoiy voqeliklar ta'sir ostida yuzaga keladi, tarkib topadi va takomillashib boradi. Shaxsni o'rganishning ijtimoiy-psixologik yondashuvi uni ijtimoiylashuvining bevosita mahsuli sifatida qarab, uning ijtimoiy psixologik tizimini bevosita o'rab turgan ijtimoiy muhit ta'sirida o'rganadi. Bu borada bir qancha olimlarning o'ziga xos nuqtai nazarlari ham mavjud. Masalan, K.K. Platonov shaxs tizimida to'rtta asosiy jabhani ajaratadi:

- 1) Shaxsning yo'nalganligi va munosabatlari tizimi: uning mayllari, xohish-istaklari, qiziqishlari, layoqati, ideallari, dunyoqarashi, e'tiqodi kabilarni o'z ichiga oladi. Bu tizimdagi xususiyatlar ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, ular insonning jamiyatda yashashi, undan oladigan tarbiya shakllari, mafkuraviy muhit asosida shakllanadi.
- 2) Shaxsning individual ijtimoiy tajribasi: bu jabhadagi sifatlar inson hayoti mobaynida orttiradigan bilimlari, malaka va ko'nikmalari asosida namoyon bo'ladi. Bu sifatlar ijtimoiy xarakterli bo'lib, ko'proq ta'lim jarayonida shakllanadi.
- 3) Inson psixik jarayonlarining individual xususiyatlari: xotira, idrok, sezgilar, tafakkur, qobiliyatlar kabi bir qarashda tug'ma omillarga bog'liq xususiyatlar inson umri davomida takomillashishi va uning boshqa ijtimoiy sifatleri ta'sirida individual o'ziga xoslik kasb etishi mumkin.
- 4) Biologik xususiyatlarga bog'liq shaxs sifatleri: bunga shaxsning tipologik, yoshiga oid, jinsiy xususiyatlari kiradi va u ko'pincha bioijtimoiy omillar sifatida qoraladi.

A.N.Suxov va A.A.Derkachlarning ta'kidlashlarida shaxsning ijtimoiy psixologik xususiyatlari haqida gap ketganda, avvalo uning fikrlash tarzi, qadriyatleri tizimi, motivatsion belgilari (yo'nalganlik, hayotiy maqsadlar, rejalar, hayot tarzi), kognitiv sifatlar (ijtimoiy tasavvurlar, hayot manzaralari to'g'risidagi fikrlari), "Men"-konsepsiyasi, "Men" obrazi, o'ziga munosabati, o'ziga nisbatan bahosi; o'zini nazorat qilish lokusi, psixologik bilimdonligi, rolli maqomlari, ijtimoiy his-tuyg'ulari va boshqalar nazarda tutiladi.

Shaxs tushunchasiga bir qancha psixolog-olimlar tomonidan tavsiflar mavjud quyida uni ko'rib chiqamiz:

"Shaxs- ijtimoiy munosabatlarning sub'ekti va ob'ektidir" A.G.Kovalyov;

"Shaxs individlararo munosabatlarning sub'ekti sifaidda" A.V.Petrovskiy;

"Shaxs-jamiyatda o'z o'rnini yangilovchi faoliyatga qodir a'zosidir" K.K.Platonov;

"Shaxs- faoliyat sub'ektidir" A.N.Leontov;

"Shaxs- tashqi xatti-harakatlarni o'zgartiruvchi ichki sharoitlar yig'indisidir" S.L.Rubinshteyn;

Juda ko'plab ta'rif va tushunchalar orasida amerikalik psixolog G.Ollport (1897-1967) ning ta'riflari e'tiborga molikdir: "Shaxs- bu hayot jarayonida shakllanuvchi individual o'ziga xos

psixofiziologik tizimlar- shaxs xususiyatlari yig'indisi bo'lib, u asosida ushbu insonga xos tafakkur va xulq-atvor yuzaga keladi".

Shunday qilib, shaxs bu- jamiyat a'zosi bo'lib, u individning psixofiziologik tizimning dinamik tashkil etuvchisi bo'lib, bu uning xatti-harakati va tafakkurini belgilab beradi.

Ijtimoiy psixologiya uchun har bir shaxsning qay tarzda o'z hayot yo'lini belgilashi va jamiyatda shaxslararo munosabatlardagi maqomi – statusi muhimdir. Bu borada uni o'rab turgan katta – makro ijtimoiy borliq hamda mikro – kichik ijtimoiy borliqning ta'sirlarini o'rganish katta ahamiyatga ega.

Shaxsga ta'sir etuvchi makro muhit – bu inson umri o'tadigan va hayoti mobaynida unga ta'sir etadigan tabiiy, ijtimoiy va ijtimoiy shart-sharoitlar majmuyidir. Ya'ni, bizni o'rab turgan jami borliq o'zining o'zgaruvchan va nisbatan barqaror shart-sharoitlari bilan bizning dunyoqarashimiz, fikrlash tarzimiz, qadriyatlarimizning shaklanishiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qadimiy shaharlar – Samarqand, Xiva, Buxoro kabilar o'zlarining tarixiy obidalari bilan ma'naviy qadriyatlarimiz tizimini belgilasa, Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo vohasi, betakror Boysun tabiati estetik didlarni tarbiyalash bilan birgalikda shaxsning olam va odam, hayot ma'nosi va qadriyatlari kabi tushunchalarini kengaytiradi, uning ijtimoiy tasavvurlarini takomillashtiradi.

Makro muhit haqida gap ketganda, olimlar uning global miqyosidagi hamda xududiy ta'sirlarini farqlaydilar. Bugunni ochiq axborot makonida barchamiz butun dunyoda yuz berayotgan voqea va xodisalarni idrok etish va ularga nisbatan muayyan pozitsiyamizni shakllantirishga muvaffaq bo'lgan bo'lsak, bu global makro muhit ta'sirlari maydonini tashkil etadi. Bunda OAV orqali berilayotgan ma'lumotlar, teleseriallar, reklama roliklari, turli shou-ko'rsatuvlar, kompyuter o'yinlarining roli sezilarlidir. Ayniqsa, yoshlarning didi, talablari, orzu-havaslari, modaga munosabati paydo bo'lishida shu kabi global ta'sirlarning sezilarli ekanligiga barchamiz guvohmiz.

Hududiy jabhada makro muhitning ta'siri quyidagi omillar orqali, kechadi:

- demografik omil – bu aholi zichligi, tug'ilish va o'limning dinamikasi, umr davomiyligi, migratsiya jarayonlari va boshqalar; masalan, aholi reproduktiv madaniyatining o'zgarib borayotganligi, oilada tug'ilayotgan bolalar soning kamayishi, odamlarning sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlarining o'zgarib borayotganligi, zamonaviy tibbiyotning inson umrini uzaytirish borasida qo'lga kiritayotgan olmashtirish yutuqlari, tabiiy, har bir alohida olingan shaxs psixikasida muayyan davr va xududga nisbatan o'zgarishlarni sodir etishi tabiiydir;
- tabiiy-ekologik omil – yashash joyining qayerda va qancha territoriyada joylashganligi, havo harorati, foydali qazilmalarning mavjudligi, ekologik vaziyat va shu kabilar; masalan, Yer kurasida global harorat isishi jarayoni ko'plab hududlarda istiqomat qiladigan

odamlarning turmush tarziga o'zgartirishlar kiritishi bilan birgalikda ularning dunyoqarashini, hayotiy pozitsiyalarini ham o'zgartiradi, albatta;

- ilmiy-texnika omili – hududdagi fan va texnologiyalarning qay darajada rivojlanganligi, kompyuterlashtirish darajasi, texnika taraqqiyoti va boshqalar ayniqsa, bolalar psixologiyaga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda; bugun olimlar, psixologlar yosh bolalarni qanday qilib, kompyuterdan, Internet tarmog'idan biroz bo'lsa-da, chalg'itish, ular qiziqishlar olamiga boshqa texnik vositalarni taqdim etishni o'ylamoqdalar, chunki doimiy texnika bilan muloqot insoniy munosabatlarning qadriyat sifatida chekinishiga olib kelishi, o'z navbatida shaxs tizimida ayrim salbiy xususiyatlarni shakllantirishi mumkin;
- iqtisodiy omil – aholi daromadlari manbai, inflyatsiya darajasi, ishsizlik va aholining ish bilan bandligi va hokazolar ham shaxsga ta'sir etuvchi muhim omillar bo'lib, aholi daromad manbalarining ortib borayotganligi shaxsning o'z imkoniyatlari, professional qobiliyatlari darajasining yuqori bo'lishini taqozo etadi;
- siyosiy-huquqiy omillar – mamlakatdagi siyosiy tuzilma, rasmiy mafkuraning bor yoki yo'qligi, qonunchilik tizimining mukammalligi, inson huquqlarining himoya qilinishi darajasi va boshqalar ham shaxsga ta'sir etadi. Masalan, O'zbekistonda xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan qator Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari ularning saylovlardagi ishtirokini, davlat organlari va qaror chiqaruvchi organlar faoliyatidagi ishtiroklari uchun ravon yo'llarni ochib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Майерс Д. Социальная психология. Интенсивный курс.-СПб.:прайм ЕВРОЗНАК, 2002- 512 с.
2. Ijtimoiy psixologiya. V.Karimova 2007 B-100
3. Umumiy psixologiya M.G.Davletshin, S.M.To'ychiyeva T.:2002
4. Социология семьи: Учебник / Под ред. проф. А.И. Антонова.- М.: ИНФРА-М, 2005 – С. 220
5. Ijtimoiy psixologiya.(o'quv qo'llanma) F.A.Akramova. 2007.B-82
6. G'oziyev E.G'. Muomala psixologiyasi. T-2001.
7. www.expert.psychology.ru
8. www.psycho.all.ru
9. www.psychology.net.ru